

## O'RTA OSIYODA XATTOTLIKNING TUTGAN O'RNI

**Ashirboyev Shohruh Shovkat o'g'li**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola xattotlik tarixi haqida ma'lumot, arab yozuvi va xattotlik san'ati, O'rta Osiya xattotlikning vujudga kelishi va rivojlanishi. Temur va Temuriylar davrida xattotlik keng taraqqiyot etganligi va Shayboniylar davrida ham o'z o'rnini yo'qotmaganligi va shu borada Xonliklar o'rtasida jumladan Qo'qon xonligida yuksak cho'qqilarga erishilgani va mamalakatimizda ko'plab xattotlik maktablari ochilganligi haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit So'zlar:** *Xattotlik, Ibn Sino, arab yuzuvlari, mashhur xattotlar, muhaqqaq yozuvi, kufiy yozuvi.*

## МЕСТО КАЛЛИГРАФИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**Аннотация:** *В данной статье представлены сведения об истории каллиграфии, арабской письменности и искусства каллиграфии, возникновении и развитии среднеазиатской каллиграфии. Сведения о том, что каллиграфия широко развивалась в период Тимура и Тимуридов и не теряла своего места даже в период Шайбани, и в связи с этим высокие вершины были достигнуты у ханов, в том числе в Коканском ханстве, и многих школах каллиграфии были открыты в нашей стране.*

**Ключевые Слова:** *Каллиграфия, Ибн Сина, арабская каллиграфия, известные каллиграфы, шрифт мухакка, кufический шрифт.*

## THE PLACE OF CALLIGRAPHY IN CENTRAL ASIA

**Annotation:** *This article provides information on the history of calligraphy, Arabic writing and the art of calligraphy, the emergence and development of Central Asian calligraphy. Information about the fact that calligraphy developed widely during the period of Timur and Timurids and did not lose its place even during the Shaibani period, and in this regard, high peaks were reached among the Khans, including in the Kokan Khanate, and many calligraphy schools were opened in our country given*

**Keywords:** *Calligraphy, Ibn Sina, Arabic calligraphy, famous calligraphers, Muhaqqqa script, Kufic script.*

Xattotlik sanati Sharq mamlakatlarida o'ziga xos alohida yo'nalish kasb etgan, maxsus ixtisos darajasiga ko'tarilgan qadimiy va bebaho sanatdir. Bu davrlarda yozuv va kitob kochirishga e'tiborning ortishi tufayli ajdodlarimiz tasarrufida bo'lgan o'lkada «Buxoro xattotlik maktabi», «Xorazm xattotlik maktabi», «Farg'ona (Qo'qon) xattotlik

maktabi», «Samarqand xattotlik maktabi», «Toshkent xattotlik maktabi» kabi bir necha yirik sanat markazlari vujudga keldi. "Ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitoblarida takidlanishicha, xunuk xat bilan yozilgan matn kishining koziga katta zarar yetkazadi." 14 Shuning uchun husnixat bilan yozilgan kitoblar nihoyatda qadrlangan, e'zozlangan hamda tabarruk sanalgan.

Husnixat sanatining asosiy uslublari. Har bir xalq va millat ilohiy bitiklardan o'ziga andoza va qolip qilib olib, xatlar turini xilma-xil uslub bilan ilohiy ilhom orqali ixtiro qila boshlaganlar. Mana shu ilohiy mojizalardan biri 28 harfdan iborat bo'lgan arab alifbosining dastlabki shakli maqaliy xatidir. "Ikki dunyo saodati bolmish Kalomulloh ham mana shu xatda bitilgan. Hazrati Usmon r.a. boshchiliklarida Quroni karim mukammal kitobat qilindi va u bir necha nusxada ko'chirtirildi. U zot Quroni mana shu asl nusxadan ko'chirishni buyurdilar. Shulardan bir nusxasi Kufa shahriga yuborilgan. Keyinchalik Iroq, Xuroson, O'rta Osiyo mana shu Kufa shahriga yuborilgan Qurondan nusxa kochirganlari uchun u «Kufi Quron» va «Kufi xati» deb atala boshladi va shunday qilib, «kufi» atamasi xat olamiga kirib qoldi. Keyinchalik kufi xatiga nuqtalar, eroblar (zamma, fatha, kasra) qoyildi."15

"Kufi xati asosida arab xatining birinchi ixtirochisi bag'dodlik Abu Ali ibn Muqla (vaf.hij. 338 y.) hisoblanadi. Ibn Muqla maqaliy (kofiy xati) asosida arab yozuvining yetti xil asosiy turini ixtiro etgan. Bu kishidan keyin Shayx Jamoliddin Yoqut Jazoiriy (277 – 397/891 -1007J.) Ibn Muqla talimoti asosida muhaqqaq va mashhur olti xatni mukammallashtiradi. Shuningdek, u nasx xatining ixtirochilaridan biridir. Manbalarda qayd qilinishicha, Shayx Jamoliddin Yoqut Quroni karimni muhaqqaq (yoqut) xatida forsiy tarjimai bilan birga ming adad ko'chirgan. Keyinchalik Ibn Vavvob (vaf.mil.1022y.) ham xat uslubining g'ozalligini mukammallashtiradi va 36 xil xat turining 17 xilini ixtiro qiladi. Buyuk xattot Yoqut (XIII asr) va boshqa ulug' xattotlar arab yozuviga sayqal berib, ularning yanada mukammal, jozibador bo'lishiga o'zlarining bebaho hissalarini qo'shganlar, xatdagi uslublarni oxiriga yetkazib takomillashtirganlar."

Bundan tashqari Temuriylar davrida Xuroson va Movarounnahr hududlarida vujudga kelgan yozuv turlari ham mavjudki, ularning asosiylari «ta'liq», «shikastayi ta'liq», «nasta'liq» va «shikastayi nasta'liq» yozuvlaridir. Xullas, arab olamida shakllanib, amalda qo'llana boshlagan arab yozuvi keyinchalik shunday taraqqiy etganki, unda vujudga kelgan yozuv turlari haqiqiy san'at darajasiga ko'tarilgan va bu yozuvlarda bitilgan qo'lyozmalar hozirgacha ham dunyo miqyosida sharq sivilizatsiyasining tipik namunasi sifatida e'zozlanib kelinmoqda.

“Nasx” xatini “kufiy” xati zaminida Abu Ali Muhammad ibn Muqla(886-940) ismli arab xattoti tartib berdi. Uning sha'niga fors tilida quyidagi bayt keltirilgan

14 АКАДЕМИЯ НАУК УЗБЕКСКОЙ ССР ИНСТИТУТ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ ИМ. АБУ РАИХАНА БЕРУНИ АБУ АЛИ ИБН СИНА -Т.: "Фан" 1980 -233б

15Бухорий А.Р. Хуснихат дурдоналари. -Т.: "Мовароуннахр", 2008 – 5-бет

16خطی چنانکی اگر ابن مقله زنده شود تراشاه قلم او بمقله بر دارد

Mazmuni: Bu xat shu qadar go'zaldirki, agar ibn Muqla tirilsa, Uni yozgan qalamning qirindiqlarini kipriklari bilan yig'ardi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur alifboda ilk bor turkiy so'z bitilgandan e'tiboran u milliy yozuvga aylandi. Shunga ko'ra uzoq yillar davomida arab alifbosiga asoslangan yozuv sharq mamlakatlarida, shu jumladan, ko'hna Turkistonda g'oyat taraqqiy topdi va nasx xati zaminida bir qator yangi xatlar yaratildi. Bu xatlarning eng mashxurlari "Xatti sunbuliy", "Xatti suls", "Xatti rayxoniy", "Xatti devoniy", "Xatti ta'liq", "Xatti nasta'liq", va "Xatti shikasta"lardir. Bular ichida "Xatti suls" va "Xatti nasta'liq" O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda keng qo'llana boshladi. Buning oqibatida "xatti suls"da sarlavxalar, keyinroq esa, asar nomlari yozilgan bo'lsa, "xatti nasta'liq"da o'sha asarlarning o'zlari bitildi. Ayniqsa milliy adabiyotimizning ko'rki bo'lgan g'azal "xatti nasta'liq"da ajoyib ziynatga musharraf bo'ldi.

Shu tariqa "xatti nasx" kitoblar orasida "xatti qur'oni" nomi bilan ko'proq diniy asarlarni ko'chirishda qo'llanilgan bo'lsa, "xatti nasta'liq" esa ilm va san'atning barcha sohalarida keng qo'llanib kelindi. O'tmishning xat "voze" (tuzuvchi)lari arab yozuvini ikki asosiy guruhga bo'ladilar. Bularning biri "kufiy" uslubi bo'lsa, ikkinchisi "nasxiy" uslubdir. Kufiy uslubda harflar to'g'ri chiziqli va bo'rchakli qilib, yozilsa, "nasxiy" uslubda bitilgan harflar esa o'zlarining egilganligi, o'ziga xos birikuvi va ravon yozishga qulayligi bilan ajralib turadi. Aslida "nasx" so'zining lug'aviy ma'nosi "yo'q qilish", "bekor qilish" demakdir. Shuningdek "yangi" degan ma'nosi ham bor. "Ta'liq" so'zi esa "bir-biriga osib qo'yilgan" degan ma'nosi ham bor. U holda "Nasta'liq" so'zini taxminan "Harflari bir-biriga osib qo'yilgan yangi xat" deb talqin qilish mumkin. Keyinchalik bu ikki so'z o'zaro birikib "x" harfi tushib qolgan va "nasta'liq" deb aytila boshlangan. Nastaliq xatiga nasx va ta'liq xatlari zaminida Mir Ali Tabriziy (1330-1404) asos solgan. Ulug' bobokalonimiz Amir Temurga zamondosh bo'lgan bu tabarruk siymo madhida manbalarda shunday satrlar bitilgan.

Markaziy Osiyoda xattotlik san'ati Temur va temuriylar davrida keng taraqqiy etdi. Husnixat san'ati dastlab Movarounnahr poytaxti Hirotda rivojlanib, u yerda Sulton Ali Mashhadiy boshliq yirik xattotlik maktabi tashkil topdi. Maktabning o'ziga xos tomoni XIV asrda Mir Ali Tabriziy yaratgan nasta'liq xat uslubi bu yerda Sulton Ali tomonidan takomillashtirildi. Bu xat yirik va mayda nasta'liq kitobat ishlarida keng qo'llanib, badiiy va tarixiy asarlar faqat nasta'liq uslubida ko'chirila boshladi. Ko'fiy, riqo', suls va nasx xatlari esa ko'proq me'morchilik, naqqoshlik san'ati va Sharq qadimgi yozuvlarini o'rganishda ishlatildi. XVI asrda temuriylar saltanati inqirozga yuz tutgandan keyin, siyosiy hukmronlik Shayboniylar qo'lga o'tishi bilan madaniy hayot ma'lum darajada Buxoroda taraqqiy etdi. Bir qism hirotlik xattot, rassom va madaniyat arboblari Buxoroda to'plandi. U yerda Buxoroga xos bo'lgan yangicha kitobat va husnixat maktabi vujudga keldi. XVI—XVII asrlarda yashab ijod etgan

Buxoro xattotlari husnixatda o'zlariga xos Buxoro xattotlik maktabini yaratdilar. Markaziy Osiyoning eng qadimiy madaniyat o'chog'laridan bo'lmish Xorazmda xattotlik san'ati XVIII asr boshlaridagina mustaqil maktab sifatida shakllandi. Ayniqsa, XIX asrda Muhammad Rahim I (1806— 1825) va Muhammad Rahim II (1844—1910) zamonida Xorazmda xattotlik san'ati keng taraqqiy etib, kitobat ishlari ham rivojlandi.

Qo'qon ham husnixat san'atida o'ziga xos vakillarini yetkazib chiqardi. XVIII asr ikkinchi yarmi va XIX asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot, san'at va adabiyot ancha ravnaq topgan. Qo'qonlik mashhur xattot Muhammad Sharif Dabir boshliq Farg'ona shaharlarida juda ko'p xattotlar yetishib chiqqan. Hirot, Buxoro, Xiva xattotlik maktablaridagi kabi bu yerda ham nasta'liq xati yetakchi o'rinda bo'lgan. Markaziy Osiyo xattotlik maktablari orasida Qo'qon xattotlik maktabida nasta'liq bilan bir qatorda badiiy asarlarni ko'chirishda shikastiy xati ham keng qo'llanilgan. XIX asr ikkinchi yarmiga kelib, ma'lum iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra Toshkent ham ilm-fan va madaniyat markaziga aylana boshladi. Toshkentda maorif, san'at va adabiyotning rivojlanishi bu yerda ham husnixat bilan shug'ullanuvchi xattotlarning yetishib chiqishiga zamin tayyorlab berdi. Bular Toshkentdagi Shohmurod kotib boshliq Markaziy Osiyo xattotlarining beshinchi maktabini tashkil qildilar.

Yuqorida sanab o'tilgan husnixat maktablari jug'rofiy tushuncha emas, balki XIV—XX asrlarda Xuroson va Markaziy Osiyo tarixining muhim iqtisodiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot bosqichlari bilan aniqlangan. Bu maktablar orasida badiiy jihatdan yuksak taraqqiy bosqichiga ko'tarilgani Hirot, Buxoro va qisman Qo'qon husnixat maktablaridir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, Xiva va Toshkentda husnixat taraqqiyoti XIX asr oxiridan toshbosma uchun kitoblar ko'chirib berish bilan ham bog'liq bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, xattotlik san'ati xalqimizning ilm-fan va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xalqni ilm-ma'rifatdan bahramand qilishda va ma'naviy-ma'rifiy yodgorliklarning bizgacha yetib kelishiga ulkan hissa qo'shishga sababchi bo'lgan Markaziy Osiyo xattotlarining beqiyos xizmati har qancha hurmat va tahsinga sazovordir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Murodov A., O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan, T., 2001.
2. Rustamov A. Karimov X. Umarov Z. Forscha o'zbekcha o'quv lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
3. Ibrohim Aniys. Mu'jam vasit. – Qohira: Darul maorif, 1972.
4. Nojiy Zayniddin Musarrif. Ajaibu al-xotti al-arobiy. – Bag'dod, 1968.
5. Komil Salmon Jaburiy. Mavsua al-xotti al-arobiy – al-xott an-nasx. – Livan: Dar va maktaba al-hilal, 1999.
6. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан – Т.: “Фан”, 1971 – 3-бет